

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI IKKINCHI DARAJA LEKSIK ASOSINI YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Latofat Yusupova

Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18265644>

Annotatsiya: Maqolada dunyo tilshunosligida til darajalarining, xususan o‘zbek tilining o‘rganilishi va uning metodik asoslari, CEFR(L) tamoyillari asosida tillarni darajalash, hozirgi o‘zbek adabiy tili ikkinchi daraja leksik asosini yaratishning nazariy asoslari hamda uning yaratilish mezonlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: til darajalari, davlat buyurtmasi, ijtimoiy ehtiyoj, materiallar, o‘qituvchining malakasi, tamoyillar, axborot texnologiyalari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ БАЗЫ ВТОРОГО УРОВНЯ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы изучения уровней языка в мировой лингвистике, в частности проблемы уровневого описания узбекского языка и его методические основы. Анализируются принципы уровневой классификации языков на основе общеевропейских компетенций владения иностранным языком (CEFR), а также теоретико-нормативные основы формирования лексической базы второго уровня современного узбекского литературного языка и критерии её создания.

Ключевые слова: уровни языка, государственный заказ, социальная потребность, учебные материалы, квалификация преподавателя, принципы, информационные технологии.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF CREATING A SECOND-LEVEL LEXICAL BASE OF THE MODERN UZBEK LITERARY LANGUAGE

Abstract: The article examines the study of language proficiency levels in world linguistics, with particular focus on the level-based description of the Uzbek language and its methodological foundations. It analyzes the principles of language level classification based on the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR), as well as the theoretical and normative foundations for developing the lexical base of the second level of the modern Uzbek literary language and the criteria for its formation.

Keywords: language levels, state order, social demand, instructional materials, teacher qualification, principles, information technologies.

KIRISH

Har bir tilni o‘rganish va o‘rgatishning lingvistik hamda metodik asoslari mavjud. Lingvistik asos muayyan tilning tilshunoslikdagi barcha bo‘limlariga oid mukammal nazariyani anglatadi, metodik asos o‘z navbatida barcha nazariy bilim va ko‘nikmalarni o‘rganuvchining shaxsi, yoshi, intellekti, ijtimoiy mavqeyi va boshqalarni hisobga olgan holda jamlangan amaliy yo‘l-yo‘riqlarni bildiradi.

Bu borada dunyodagi barcha tillarning o‘rganish va o‘qitish dasturulamallari bor. Jumladan, ingliz tilini o‘rganish, o‘qitish va baholash maqsadida ishlab chiqilgan CEFR(L) bugungi kunda nafaqat ko‘pgina Yevropa tillari uchun, balki turkiy tillar uchun ham amal

qilmoqda. Bundan tashqari, muayyan davlat tilini o'qitish uchun o'sha davlat tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum me'yoriy hujjatlar va davlat ta'lim standarti ishlab chiqiladi.

“Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.”

ASOSIY QISM

Davlat ta'lim standarti ona tilini o'qitishda yuqorida ta'kidlangan lingvistik va metodik asoslarga tayangan holda til o'rgatuvchi uchun yo'riqnoma vazifasini o'taydi.

Davlat ta'lim standarti (DTS) bo'yicha ona tilini o'qitishda tilning ikkinchi (B1 va B2) darajasi uchun nutqiy kompetensiya - to'rt asosiy ko'nikma (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) asosida, lingvistik kompetensiya esa asosan leksika va uslubiyatga oid bilimlar hamda ularni takrorlash asosida shakllantirilishi belgilab qo'yilgan.

Nutqiy kompetensiyaviy yondashuv CEFR(L)da ham yuqoridagi to'rt ko'nikmaga binoan me'yorlashtirilgan. DTSda tilning ikkinchi darajasi B1 - ona tili fani chuqurlashtirilmagan o'rta ta'lim bitiruvchilari uchun standart daraja hisoblansa, B2 (“B+” tarzida berilgan) - ona tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan darajasidir.

CEFR(L)da B1 til darajasi Intermediate (“o'rta”) level deb nomlanib, uning umumiy ta'rifi quyidagicha:

“Intermediate level - B1 daraja - tilning mustaqil foydalanuvchilariga, ya'ni ona tilida so'zlashuvchilar bilan qiynalmasdan muloqot qilish uchun kerakli nutqiy ravonlikka ega bo'lganlar uchun mos keladi. Bu ingliz tilida yetarlicha ravon gaplashishga, ko'plab professional va kundalik mavzularni muhokama qilishga hamda ingliz tilida aytilganlarning asosiy qismini tushunishga imkon beradigan o'rta darajadir. Jamiyatda deyarli barcha ish beruvchilar o'zlarining potensial yoki haqiqiy xodimlaridan ingliz tilini Intermediate'dan past bo'lmagan darajada bilishni talab qilishadi.”

Ingliz tilining B1 darajasiga moslashtirilgan o'quv dasturiga kiruvchi suhbat mavzulari: oila va shaxsiyat, insonlarning tashqi qiyofasi va xarakterini tavsiflash, ish, pul va muvaffaqiyat, biznes, ta'lim, muomala madaniyati, transport va sayohat, yashash joylari, tabiat va atrof-muhit, iqlim va tabiiy ofatlar, aloqa - TV va ommaviy axborot vositalari, kino va filmlar, san'at, xarid qilish, oziq-ovqat va restoranlar, turmush tarzi, sport, do'stlik, qiyinchiliklar va muvaffaqiyat, yaxshi va yomon odatlar, jinoyat va jazo kabilar.

O'rta daraja kuchli tayanch lug'at va grammatik bilimlarni shakllantirishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Keyingi darajalar faol va passiv so'z boyligini chuqurlashtirish va kengaytirish, tilning nozikliklari hamda so'z badiiyatini anglashga mo'ljallangan.

Ona tilini o'qitishda DTSga asoslangan B1 daraja uchun kompetensiyaviy talablar quyidagicha:

Nutqiy kompetensiya: tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish.

Tinglab tushunish: sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini va maqsadini idrok etadi. Nutqning to'g'riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta'sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar hamda kasb-hunar so'zlarining ma'no xususiyatlarini farqlaydi.

So‘zlash: nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va uslubiy me’yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg‘uni o‘rinli va to‘g‘ri qo‘yadi.

O‘qish: turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy oladi, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiydi.

Yozish: ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo, tinish belgilari va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Fikr ifodasida mantiqiy izchillikka rioya qiladi, unda kirish va kiritmalar, ko‘chirma gaplar, tilning ifoda vositalaridan foydalanadi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi, izohlay oladi. 30-35 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi.

CEFR va DTS talablari hamda dunyo tilshunosligida til darajalanish me’yorlari va tamoyillarini o‘rgangan holda hozirgi o‘zbek adabiy tili ikkinchi daraja leksik asosini yaratishda quyidagilarga e’tibor berish zarur.

CEFR asosida til darajalanishini yaratish turli xil madaniyatlardagi pedagogik sektorlarning daraja va modullar tizimini tartibga solish yoki tavsiflashdan hech qanday farq qilmaydi. Bundan tashqari, CEFR asosidagi darajalanishning aniq va mukammal formulasini kutish kerak emas, chunki umumiy mos yozuv punktlari va daraja tavsiflovchilari - leksikada so‘z va iboralar - vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, o‘zgarib boradi.

CEFRning maqsadlaridan biri til o‘rganuvchilarning malaka darajasini tavsiflashda yordam berish bo‘lib, u turli xil malaka tizimlari o‘rtasida taqqoslashni osonlashtirish uchun mavjud standartlar, testlar va imtihonlarni talab qiladi. Shu maqsadda CEFRning tavsiflovchi sxemasi va umumiy ma’lumot darajalari ishlab chiqilgan. Umumiy ma’lumot darajalari esa foydalanuvchilar o‘z tizimlarini tavsiflash uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan konseptual tarmoqni taqdim etadi.

CEFRning darajalari to‘rt mezonga javob berishi kerak: ularning ikkitasi tavsif muammolariga va ikkitasi o‘lchov masalalariga tegishlidir. Tavsif muammolarini hal qilishda umumiylik va kompetensiyaviylik mezonlari amal qiladi.

CEFRning tavsiflovchilari umumiydir, ya’ni til o‘rganuvchilarning yoshi va ijtimoiy holatidan qat’i nazar maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’limda tahsil oladiganlar yoki katta yoshdagilar uchun alohida-alohida mezonlar mavjud emas. CEFR kontekst - matn bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, o‘rgatilishi nazarda tutilgan lug‘at albatta matn bilan bog‘liq holda o‘rganuvchiga havola qilinadi.

Bu shuni anglatadiki, o‘quvchilar turli xil sharoitlarda maqsadli matnlar bilan bog‘liq bilimlarni egallashi lozim. Bu ko‘pincha umumiy maqsadli aholi doirasidagi o‘quvchilar guruhlarining shakllanganligini ko‘rsatadi.

CEFR til kompetensiyasi nazariyalariga asoslanishi kerak. Bunga erishish qiyin, chunki bunday tavsif uchun zarur bo‘lgan nazariya va tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shunga qaramay, nazariy asosga ega bo‘lgan tasniflash va tavsifga ehtiyoj bor.

Bundan tashqari, nazariya bilan bog‘liq holdagi tavsif foydalanuvchilar va amaliyotchilar uchun qulay bo‘lishi kerak. Kompetensiyalar o‘rganuvchilarning maqsadli matnlar nimani anglatishini yanada chuqurroq o‘ylab ko‘rishiga asos bo‘ladi.

O‘lchov masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan obyektivlik va darajalarda bir xillik mezonlari ham mavjud. Muayyan faoliyat va vakolatlar doirasidagi baholash asosli holda ma’lum o‘lchov nazariyasi bo‘yicha obyektiv ravishda aniqlanishi kerak.

Xususan, amaliyotchining asossiz konvensiyalar va “qoidalar”ni qabul qilishiga, xatolarni tizimlashtirishga yo‘l qo‘ymaslik uchun amaliyotchi guruhlar yoki konsultatsiya markazlari shakllantirilishi lozim.

Qabul qilingan darajalar soni har xil rivojlanishni ko'rsatish uchun yetarli bo'lishi kerak. Bu turli o'lchovlar kengroq (odatiy, an'anaviy) va tor (mahalliy, pedagogik) darajalarni qabul qilishni anglatadi.

Ushbu mezonlarni mukammal bajarish juda qiyin, ammo tillarni o'qitish va baholashda yo'nalish nuqtasi sifatida ahamiyatga ega. CEFR, aslida, intuitiv, sifatli va miqdoriy usullarning kombinatsiyasi hamda muayyan tizimli matnlar jamlanmasini qamrab olishi zarur.

Matnlar va ularni shakllantiruvchi lug'atni tanlashda esa subyektivlikdan qochgan holda, turli yosh, kasb va sohalaridagi til o'rganuvchilarning ehtiyojlarini umumlashtirib, o'qitish va baholash o'lchovini to'g'ri olish lozim.

Hozirgi o'zbek adabiy tilini CEFR asosida darajalash jarayonini ongli ravishda uchga bo'lish mumkin (tasnif o'zimizniki):

1. Boshlang'ich jarayon - hozirgi o'zbek adabiy tilini darajalashda darajalanish maqsadlari, mezonlari va tamoyillarini aniqlash jarayoni.

2. Tasdiqlash jarayoni - bu miqdoriy tahlilni o'z ichiga oladigan, doimiy va nazariy jihatdan tugamaydigan jarayon. Umumiy ma'lumot darajalarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan metodologiya va ularning illyustratsion tavsiflovchilarini intuitiv, sifat va miqdorning tizimli birikmasidan iborat usullar bilan mukammallashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda, birinchidan, mavjud o'lchovlarning mazmuni CEFRda ishlatiladigan tavsif toifalarga nisbatan tahlil qilinadi. Keyinchalik, intuitiv bosqichda ushbu material tahrir qilinadi, yangi tavsiflovchilar shakllantiriladi va to'plam mutaxassislar tomonidan muhokama qilinadi.

3. Amaliy jarayon - hozirgi o'zbek adabiy tilining darajali o'qitish uchun o'quv dasturlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar va lug'atlar yaratish jarayoni.

Keyingi bosqichlarda esa o'qituvchilarning tanlangan tavsiflovchilar toifalarga aloqadorligini tekshirish uchun turli xil sifatli usullardan foydalaniladi va identifikatorlar - CEFRda o'z toifalarini tavsiflovchilar, ya'ni til birliklarini - amalda qo'llab ko'riladi. Nihoyat, to'plamdagi eng yaxshi tavsiflovchilar miqdoriy ko'rsatkichlar yordamida o'lchab olinadi. Ushbu o'lchovning to'g'riligi keyinchalik replikatsiya ishlarida tekshiriladi.

CEFR asosida hozirgi o'zbek adabiy tili ikkinchi daraja leksik asosi tavsiflovchilarini ishlab chiqish tamoyillari quyidagicha:

1. Aniqlik tamoyili. Samarali tavsiflovchilarni tanlab olish uchun ularning har biri qisqa, aniq va shaffof, ijobiy shakllangan, aniq bir narsani tasvirlaydigan va boshqa darajada talqin qilinmaydigan mustaqil yaxlitlikka ega bo'lishi shart.

2. Umumiylik tamoyili. Turli xil ta'lim sohalaridagi lingvistik tayyorgarlik va o'qitish tajribasining shartlari mahalliy bo'lmagan va ona tilida so'zlashmaydigan o'qituvchilar guruhlari tomonidan shaffof, foydali va dolzarb deb topilishi, ya'ni maqsadli bo'lishi zarur.

3. Asoslanganlik tamoyili. Har bir taqdim etiladigan identifikator o'qituvchilar tushunadigan bir necha minglab misollar asosida tanlab olingan bo'lishi kerak. Jumladan, ko'p ma'noli so'zlar va iboralarning matnlarda yoritilishi bu shartga javob berishi lozim. CEFR asosida hozirgi o'zbek tili ikkinchi daraja leksik asosini darajalashda katta hajmli matnlar to'plamiga ega bo'lishi lozim. Bu vaziyatda darajalanayotgan o'zbek tili milliy til korpusining mavjudligi juda ahamiyatlidir.

4. Maqsadlilik tamoyili. Tavsiflovchilar o'quvchilarning quyi va o'rta, kasb-hunar va kattalar ta'limi sohasidagi haqiqiy yutuqlari tavsifiga mos kelishi va shu bilan real maqsadlarni ifodalashi lozim.

5. Obyektivlik tamoyili. Tavsiflovchilar umumiy miqyosda obyektiv ravishda kalibrlangan, ya'ni ham o'qituvchilar, ham o'quvchilar tushunadigan tarzda shakllanganligi katta ahamiyatga ega.

6. Baholash tamoyili. Chet tillarni bilish darajasining muttasilligi to'g'risida mezonlarga oid ma'lumotlar bazasini taqdim etish, bu mezonlarga asoslangan holda moslashuvchan baholash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Hozirda CEFRning bunday tizimi mavjud mahalliy tizimlarga mos keladi, mahalliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan va yana yangi tizimlarni ishlab chiqishda foydalanilish mumkin.

7. Egiluvchanlik tamoyili. Bunga ko'ra CEFR asosida darajalangan o'zbek tili leksikasi qolipi, uning an'anaviy va pedagogik darajalari boshqa tillarni, xususan, turkiy tillarni darajalashda umumiy qolip bo'la olishi kerak. Bunda CEFR asosida darajalangan tillarning milliy xususiyatlari inobatga olinadi, albatta.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, agar o'zbek tilini o'qitish va baholash darajasini ishlab chiqishda ona tili fanidan DTS talablari yagona standart dasturulamal vazifasini o'tasa, uni qo'shimcha tarzda tillarni xalqaro darajalash tamoyillari, jumladan, CEFR(L)ning umumiy talablari bilan mushtarak holda mukammallashtirish, tilni o'qitishda nazariya hamda amaliyotning izchilligiga e'tibor qaratish va o'zbek tilini nafaqat tub aholi vakillari, balki til o'rganuvchi xorijliklar uchun ham amal qiladigan me'yorlariga, tilning milliy xususiyatlari, o'zbekona ruh va mentalitetning tildagi ifodasiga e'tibor qaratish lozim.

Bunda o'zbek tili B1 darajasining kompetensiyaviy talablarini aniqlashtirish, lug'at tarkibini ham leksik, ham miqdor jihatdan tartiblash zarur. Hozirgi o'zbek adabiy tili ikkinchi daraja leksik asosini yaratish tamoyillari bilan birga ularni o'qitish va natijada til o'rganuvchining aynan leksikaga oid bilim va ko'nikmalarini baholashda ham maxsus leksik baholash tizimini shakllantirish lozim.

Bu jarayonda baholanish ham darajama-daraja, bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bunda til o'rganuvchini sinovdan o'tkazishdan tashqari sinovchi milliy til markazini ham baholovchi, ularning faoliyatini tekshiruvchi tashkilotlar "bir-birini baholash" tamoyiliga asoslanishadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // www.zarnews.uz, 2019.
2. Mirziyoyev Sh. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. // www.uza.uz, 2019.
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami). Toshkent, 1999.
4. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan, 1981.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
6. www.britishcouncil.org.
7. www.libraryziyonet.uz.